

## HUQUQ SOHASIDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALARNING DOLZARB JIHATLARI

*Turg'unboyev Otabek, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "Xalqaro huquq" fakulteti, 2-kurs talabasi, e-pochta: [otabekodilov535@gmail.com](mailto:otabekodilov535@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada xalqaro huquq normalarining tushunchasi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquq normalarini yaratishdagi ishtiroki, "Xalqaro huquq" tushunchasini aniqlash va uning ta'rifi, xalqaro huquq davlatlararo yoki kengroq ma'noda xalqaro munosabatlarga xos bo'lgan hodisa va jarayonlarning huquqiy xususiyatlarini ko'rib chiqishi, xalqaro huquqning rivojlanish tarixi haqida batafsil so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** norma, prinsip, evolutsiya, fragmentatsiya, xalqaro tashkilotlar, qonunlar.

Xalqaro huquq bu - davlatlarning do'stlik va diplomatik munosabatlarini tartibga solib turuvchi prinsip va normalardan tashkil topgan alohida huquqiy tizimdir. Bundan tashqari, xalqaro huquqqa bir necha ta'riflar berilgan, ularning umumiy tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin: Xalqaro huquq - bu tinchlik va hamkorlikni ta'minlash maqsadida davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik me'yorlar tizimidir. Xalqaro huquq g'oyat keng va turli tarmoqlarni o'z ichiga oluvchi alohida huquqlar tizimidir. Barcha milliy huquqiy tizimlarga xos bo'lgan huquqning asosiy xususiyatlari xalqaro huquqqa ham xosdir. U davlat idora xarakteriga ega bo'lib, muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi yuridik normalar tizimidan iborat. Bu normalarga rioya qilish zarur holatlarda davlat majburiyati orqali ta'minlanadi. Ichki davlat subyektlari jismoniy, yuridik shaxslar va davlat organlaridan iborat. Xalqaro huquq subyektlari esa, asosan ustidan hech qanday hukmronlik bo'lmagan suveren davlatlardan, xalqaro va davlatlararo tashkilotlar, mustaqillik uchun kurash olib borayotgan millatlar va xalqlardan iborat. Xalqaro huquq o'z harakat predmetiga ega. Bu davlatlararo

munosabatlar, umuman olganda, xalqaro huquq tizimining barcha subyektlari o'rtasidagi munosabatlar. Xalqaro huquq normalari uning subyektlari tomonidan tuziladigan bitimlar orqali yaratiladi. Ichki davlat huquqi singari xalqaro huquq ham xalqaro normalarga rioya qilishni ta'minlash uchun davlat tomonidan majbur qilish usulining qo'llanishini ko'zda tutadi. Xalqaro huquq tarixi davlat va huquq umumiy tarixining ajralmas qismi bo'lib, davlatning dastlab vujudga kelishi bilan boshlangan. Qadimgi tarix, eng qadimgi davr tarixi ibtidoiy va qadimgi jamiyat ishlab chiqarish munosabatlari hukm surgan davrdir. U paytlarda hali yagona xalqaro huquq tizimi shakllanmagan edi. Xalqaro huquq rivojlangan asosiy mintaqalar ikki daryo oralig'i va Misr, Hindiston, Xitoy, Qadimgi Yunoniston hamda qadimgi Rim bo'lgan. Buni Misr firavni Ramzes II Xetlar shohi Xatteshul III bilan eramizdan avvalgi 1300-yilda tuzilgan xalqaro shartnoma misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu shartnoma isyonlarni bostirish, qochoqlarni tutib egalariga qaytarish va shunga o'xshash qoidalarni ko'zda tutgan edi. Buyuk sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari harbiy harakatlarni tartibga solish zarurligi va urush qonunlari hamda odatlari insonparvarlikka yo'naltirishga qaratilgan xalqaro huquq doktrinasining rivojlanishiga progressiv ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, XV asr boshlarida Amir Temur Ispaniya va boshqa davlatlar elchilarini qabul qilayotib, o'rta asr diplomatiyasida rasmiy qabul va tantanali marosimlarda elchilar uchun belgilangan imtiyozlar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga asos ekanligini ko'rsatib berdi. Xalqaro huquq muhim huquqiy kategoriya bo'lib, xalqaro munosabatlardan, ularning iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy va boshqa xususiyatlardan o'sib chiqqan. Shunday qilib, xalqaro huquqning paydo bo'lishi bevosita davlatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Davlatlar taraqqiyotining obyektiv shart-sharoiti ular o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy munosabatlarni o'rnatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Buning natijasi o'laroq huquqning mustaqil tizimi sifatida xalqaro huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishidir. Hozirgi davr xalqaro huquqi uchun xalqaro tashkilotlar, atrof-muhitni himoya qilish kabi yangi xalqaro huquq sohalarining vujudga kelishi

bilan xarakterlidir. Yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda. XXI asr insoniyat jamiyati hayotining baynalminallashuvidek tarixiy qonuniyatning kuchayish harakati bilan ajralib turadi. Davlat chegaralarining mavjudligi va har xilligiga qaramay, yagona xalqaro jamiyatda mamlakatlarning o'zaro aloqalari o'sib bormoqda. Xalqaro munosabatlar nafaqat davlatlar hayotiga, balki har bir alohida odamga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro munosabatlar tizimi huquqning muayyan sohasi xalqaro huquq bilan tartibga solinadi. U ko'p yoki oz darajada davlatlarning, jismoniy va yuridik shaxslarning turli-tuman aloqalariga ta'sir qiladi. Xalqaro huquqning milliy huquq va davlat ichki hayotiga ham ta'siri kuchaymoqda. Shu bois, xalqaro huquqni bilish nafaqat xalqaro munosabatlar bilan bevosita shug'ullanuvchi mutaxassislar, balki jahon siyosati va iqtisodiyotida, tadbirkorlikda yo'l topish, oddiy fuqarolar va sayyohlar uchun ham ancha ahamiyatli bo'lib bormoqda. Xalqaro huquqqa faqat kasbiy nuqtai nazardan qarash noto'g'ri bo'lgan bo'lardi. Xalqaro huquq - ko'p asrlik baynalminal aloqaviy tajribani gavdalantiruvchi, insoniyatning umumiy madaniy merosining, umuminsoniy madaniyatning muhim elementidir. U baynalminal ong rivojiga, odamlarni barcha millatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi. Shu yo'nalishda xalqaro huquqiy madaniyat milliy va etnik ziddiyatlarni bartaraf etishda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro huquqni o'rganish shu qadar dolzarb bo'lmoqdaki, bunga BMT ham e'tibor bermoqda. Xalqaro huquqni o'rganish va o'qitishni rag'batlantirish, uning ahamiyatini tushunishga ko'maklashish hamda xalqaro huquqiy bilimlar ko'lamini kengaytirish, BMTning xalqaro huquq o'n yilligining (1990-1999) asosiy masalalaridan biridir. Xalqaro huquqiy bilimlarni o'rganish va tarqatish, o'qitishda yordam ko'rsatish bo'yicha BMTning Dasturi qabul qilingan. Ushbu ma'ruzaning yozilishida xalqaro tashkilotlar va aksariyat davlatlar amaliyotidagi dastlabki manbalardan foydalanilgan. Xalqaro huquqiy normalar talqinida muhim bo'lgan BMTning Xalqaro sudi qarorlariga alohida e'tibor berilgan. Albatta, ko'p hollarda O'zbekiston Respublikasining

amaliyoti hisobga olingan. Xorijiy mamlakat olimlarining eng yangi asarlaridan foydalanilgan. Xalqaro huquq normalari asta-sekin milliy huquqiy tizimning bir qismiga aylanib bormoqda, uning asoslarini bilish jismoniy va yuridik shaxslarning o'z huquqlarini mamlakat ichida himoya qilishlari uchun zarurdir. Afsuski, xalqaro huquqiy bilimlar darajasi nihoyatda past. Turli davlatlarning huquqni amalga oshiruvchi organlari milliy huquqiy tizimda xalqaro normalarning yangi vazifasiga tayyor emasligini alohida ta'kidlash lozim. Xalqaro huquqiy sohada tayyorgarlikning past darajadali aksariyat mamlakatlarning yuristlari uchun xosdir. O'zbekistonda ham bu muammo dolzarb bo'lib turibdi.

Xalqaro huquq normalari - bu davlatlar va boshqa subyektlarning faoliyati munosabatlarining umummajburiy qoidalari hisoblanadi. Xalqaro huquqiy normalarning o'ziga xos xususiyati va tizimi uning tuzilishiga bog'liq. ko'pgina normalar faqat dispozitsiyadan iborat, sanksiyalar esa tizim asosida belgilanadi. Konkret sanksiya normalari qonun buzish holatlarida alohida shartnomalarda mustahkamlanadi.[1] Malcolm D.Evans fikriga ko'ra, an'anaviy xalqaro huquqqa asosan ikki turdagi xalqaro huquqiy manbalar mavjud. Bular xalqaro huquqning moddiy va rasmiy manbalaridir. Moddiy manba qoidalar aks etadigan hujjat hisoblanadi. Bularga shartnomalar, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari, Birlashgan Millatlar Xalqaro huquq komissiyasining takliflari va boshqa shu kabi hujjatlar kiritilishi mumkin. Xalqaro huquqning rasmiy manbasi esa davlatlar tomonidan huquqiy norma sifatida tan olingan qoidalar hisoblanadi. Xalqaro huquq normalari, avvalo, xalqaro huquq subyektlarining roziligi bilan yaratiladi. Rozilikni izhor etish shakli huquqni yaratish jarayoni kabi turlicha bo'lishi mumkin. Rozilik berish tinch kelishuv tarzida bo'lishi mumkin. Xalqaro-huquqiy normalar o'zining mazmun va shakliga ko'ra bir xil emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jeneva shahrida o'z ishini boshlagan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasining yuqori darajadagi segmentida so'zlagan nutqida biz so'nggi yillar davomida Kengashga a'zo bo'lish uchun butun mas'uliyatni anglagan holda intilib kelganimizni alohida ta'kidladilar.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, “Demokratik islohotlarimiz yangi O‘zbekistonni bunyod etishga qaratilgan bo‘lib, bu o‘zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi”. O‘zbekiston ilk bor BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining a‘zosi sifatida 2021 yil 1-yanvardan o‘z vazifalarini bajarishga kirishdi. An‘anaga ko‘ra, BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining bahorgi sessiyasi doirasida 22-24-fevral kunlari Jeneva shahrida bo‘lib o‘tgan yuqori darajadagi segment ishida Prezidentimiz Kengashga a‘zo davlat rahbari sifatida birinchi marta ishtirok etdilar. Segment majlisidan ko‘zlangan maqsad - dunyo mamlakatlarida inson huquqlarini himoya qilish, shuningdek ushbu sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi mexanizmlari va tartib-taomillarini mustahkamlashning dolzarb masalalarini yuqori siyosiy darajada muhokama qilishdan iborat. Yuqori darajadagi segment Inson huquqlari bo‘yicha kengashning yil davomidagi eng asosiy siyosiy tadbiri hisoblanadi. Mazkur Segment BMTga a‘zo mamlakatlarning inson huquqlari va erkinliklarini rag‘batlantirish hamda himoya qilish masalalari bo‘yicha umumiy va o‘zaro mutanosib yondashuvlarini ishlab chiqish va kelishib olish mexanizmi sifatida tuzilgan. Yig‘ilish kun tartibidan inson huquqlariga rioya etilishi va ularni himoya qilish, shu jumladan fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta‘minlash bilan bog‘liq eng dolzarb masalalar o‘rin oldi. Tadbirda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissar Mishel Bachelet, qariyb 150 mamlakatdan hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari va inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar namoyandalari, bir qator xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi. O‘zbekiston Prezidenti o‘z chiqishida mamlakatimizda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi doirasidagi faoliyatimizning ustuvor yo‘nalishlari haqida atroflicha to‘xtaldilar.

Sohadagi yana bir muhim natija: Prezidentimizning 2020-yil 22 iyundagi Farmoni [2] ga ko‘ra, “Inson huquqlari himoyasi uchun” ko‘krak nishoni ta‘sis etildi. Ushbu ko‘krak nishoni bilan ilk bor inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi xizmati, inson huquqlarini targ‘ib qilishdagi

faolligi, inson huquqlari sohasidagi ta'lim, yoshlar o'rtasida inson huquqlarini himoya qilish an'analarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi, inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlarni rivojlantirish va boshqarishdagi salmoqli yutuqlari, inson huquqlari sohasidagi samarali ilmiy faoliyati uchun bir guruh O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda ikki nafar chet el fuqarosi taqdirlandi. E'tibor bering: har 5 yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi e'lon qilingan kun - 10 dekabrda BMTning Inson huquqlari bo'yicha mukofotini topshirish marosimi bo'lib o'tadi. Ushbu mukofot 1966 yilda Inson huquqlarini himoya qilishga ulkan hissa qo'shgan insonlarni taqdirlash uchun tashkil etilgan. Endilikda O'zbekiston ham inson huquqlari bo'yicha o'z mukofotini ta'sis etdi. 2020 yildan e'tiboran har yili 10 dekabr - Xalqaro inson huquqlari kunida "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni sovrindorlari tantanali ravishda taqdirlab boriladi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2020-yil 22-iyunda qabul qilingan Milliy strategiya mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmini takomillashtirish va inson huquqlari madaniyatini shakllantirish borasida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu hujjatda inson huquqlari masalasiga tizimli yondashish va mavjud bo'shliqlarni, kamchiliklarni bartaraf etish ochiq-oydin ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Kengashi va Senati Kengashi 2020-yil 25-sentabrda qabul qilgan qo'shma qarori [3] bilan Inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga rioya etilishi bo'yicha Parlament komissiyasi tuzildi va uning tarkibi hamda Reglamenti tasdiqlandi. Parlament komissiyasining asosiy maqsadi - inson huquqlari sohasida mamlakatimizning xalqaro majburiyatlariga rioya etilishiga hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat.

Yurtboshimiz BMT Bosh Assambleyasi 75-yubiley sessiyasida qayd etganidek, «Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rne tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi». Haqiqatan ham, Oliy Majlisga bo'lib o'tgan oxirgi saylovlar natijasida birinchi marotaba

O'zbekiston parlamentida ayollar soni bo'yicha BMT tavsiyalari (kamida 30 foiz) to'liq bajarildi. Qonunchilik palatasiga 32 foiz, ya'ni 48 nafar ayol-deputatlar saylangani, o'z navbatida, dunyodagi 190 parlament ichida O'zbekiston parlamentining 37-o'ringa ko'tarilishini ta'minladi. Vaholanki, 2014 yilda bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakatimiz 128-o'rinda edi. Ya'ni, ilgari biz uchun gender tenglik masalasi ustuvor emasdek tuyulgan. Oqibatda biz bu borada ancha ortda qolib ketdik. Keyingi davrdagi tahlillar asnosida xotin-qizlarning jamiyatimizda tutgan o'rni va nufuzi, ularning boshqaruv idoralaridagi ishtiroki mutlaqo qoniqarsiz ahvolda ekani ayon bo'ldi. Shuning uchun oxirgi 4 yilda mamlakatimizda 2 ta muhim qonun - «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi va «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. 2020-yilning o'zida O'zbekistonda xotin-qizlarning hukumat va jamiyatdagi rolini oshirishga, ularning bandligini ta'minlashga, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga va muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 15 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Shu asosda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Aytaylik, bir tomondan, zo'ravonlikdan jabr ko'rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha joylarda maxsus markazlar tashkil etilib, ayollarga maxsus «Himoya orderi» berilyapti. Ikkinchi tomondan, bugungi kunda opa-singillarimiz davlat boshqaruvi idoralarida samarali faoliyat yuritmoqda. Natijada boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi 26,6 foizga yetkazildi.

O'tgan yildan boshlab davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarning bilim olish imkoniyatlari yanada kengaytirilib, oliy ta'lim muassasalariga 4 foizli davlat grantlari ajratildi. Mazkur yangi tizim asosida 2020-yilda 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar o'qishga qabul qilindi. Insoniyat taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar ochayotgan zamonaviy globallashtirish sharoitlari bir vaqtning o'zida u ilgari duch kelmagan turli, ba'zan kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xalqaro munosabatlarda o'zaro ishonch va hamkorlikka putur yetkazuvchi, qarama-qarshilik va adolatsiz raqobatning kuchayishiga olib keladigan geosiyosiy manfaatlarining

to'qnashuvi global iqtisodiy inqirozga, jahon bozorlarida beqarorlikka, energiya narxlarining o'zgarishini keltirib chiqaradi. Bu esa deyarli barcha mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy resurslar uchun kurash esa davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga olib keladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, jahon iqtisodiyotidagi bugungi tendensiyalar, ayrim mintaqalarda vaziyatning keskinlashuvi, migratsiya jarayonlarining kuchayishi bilan xalqaro jinoyatchilik: odam savdosi, terrorizm, ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va xavfli yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Jahon makonining o'zaro chambarchas bog'liqligi va o'zaro bog'liqligi sharoitida bu hodisalar ham shaxsga, ham butun jamiyat va davlatlarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin, bu esa davlat va jamiyat boshqaruvida, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda demokratik o'zgarishlarning barqarorlik, xavfsizlik, inson huquq va erkinliklari ta'minlashda naqadar zarur ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. Hozirgi zamonning murakkab sharoitida O'zbekiston tashqi siyosatda o'z yo'lini tanladi. Mustaqillik va suverenitetni himoya qilish, mamlakatimizning xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatidagi o'рни va rolini yanada mustahkamlash, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik halqasini yaratish davlat tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishidir. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati Konstitutsiyaga, "Tashqi siyosat konsepsiyasi to'g'risida", "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi qonunlarga va boshqa huquqiy hujjatlarga, shuningdek, mamlakatimiz qo'shilgan xalqaro konvensiya va shartnomalarga asoslanadi. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 17-moddasi "Tashqi siyosat" IV bobida: "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xalqaro huquqning umume'tirof



etilgan boshqa tamoyillari va normalariga asoslanadi” degan tamoyillar mustahkamlab qo’yilgani shuni tasdiqlaydi. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 18-moddasida quyidagi qoidalar belgilangan: “O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama munosabatlarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosat yuritadi. O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning, uning farovonligi va xavfsizligining oliy manfaatlaridan kelib chiqib, ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stlik va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi, shuningdek ulardan chiqishi mumkin”. Qolaversa, mamlakatimizda inson huquqlarini ta‘minlashga katta ahamiyat berilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsip va normalarini qamrab olgan inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo‘shildi. O‘zbekistonda va boshqa davlatlarda e‘tirof etilgan xalqaro huquq tamoyillari va normalari huquqiy tizimning tarkibiy qismi sifatida belgilangan. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonunlar, sud qarorlari, ratifikatsiya hujjatlari yoki xalqaro shartnomalarga qo‘shilish to‘g‘risidagi hujjatlarda o‘z aksini topadi. Xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan tamoyillari va normalari huquq tizimining ajralmas qismi sifatida konstitutsiyaviy darajada e‘tirof etilgan bo‘lib, bu globalashuv sharoitida davlatning xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishga tayyorligini ko‘rsatadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasiga [4] muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimining ajralmas qismi ekanligi belgilandi. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasi qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llaniladi. Konstitutsiyaga kiritilgan mazkur norma xalqaro hujjatlarda belgilangan umume‘tirof etilgan prinsip va normalarni amaliyotga bevosita tatbiq etish, ularni milliy qonunchilikka tatbiq etish va boshqa mexanizmlar orqali ta‘minlashni nazarda tutadi. Germaniya, Fransiya,

Ispaniya, Sloveniya va boshqa bir qator davlatlarning konstitutsiyaviy amaliyotida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari milliy huquq tizimining ajralmas qismi ekanligi belgilangan. Konstitutsiyada davlatimizning xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda huquq tizimining ajralmas qismi ekanligining aks ettirilishi davlatning xalqaro nufuzini yanada oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklari nafaqat milliy qonunchilikda belgilangan normalar, balki xalqaro huquq asosida ham himoya qilinishini ta'minlaydi. Xalqaro huquqning ustuvorligi, birinchidan, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini xalqaro hujjatlarga muvofiq ishlab chiqish va qabul qilish, davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan qarorlar qabul qilishda xalqaro hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlaydi, ikkinchidan, u qonun hujjatlarida nazarda tutilgan masalalarni hal qilish uchun fuqarolarning davlat organlari bilan munosabatlarida, surishtiruv olib borishda, sud-tergov amaliyotida va boshqa hollarda xalqaro hujjatlar normalaridan foydalangan holda o'z huquqlarini himoya qilishda kafolatlar yaratadi. Ma'lumki, har qanday davlatning tashqi siyosati birinchi navbatda o'z xalqi manfaatlarini himoya qilish va rag'batlantirishga qaratilgan. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida mamlakatimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, samarali tashqi siyosatni amalga oshirishga qaratilgan maqsadlar respublika davlat hokimiyati organlari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakatning tashqi siyosatini amalga oshirishda qonun chiqaruvchi organlarning eng muhim vazifalaridan biri tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirishdan iborat. Qonun hujjatlarini ishlab chiqish yoki ularni takomillashtirishning asosi Konstitutsiyadir. O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshirishda hokimiyat vakillik organlarining imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Qonun chiqaruvchi organlar amaliyotida parlament diplomatiyasi kabi mexanizmdan keng foydalanilayotgani buning dalilidir. O'zbekiston Respublikasining BMT, SHHT, MDH, YEXHT, IHT, TDT va boshqa xalqaro tuzilmalar faoliyatidagi

ishtiroki parlament diplomatiyasini amalga oshirishning ishonchli asosidir.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda BMT tuzilmaviy bo'linmalari bilan hamkorlik parlament diplomatiyasi yo'nalishlaridan birining yorqin misolidir. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan tashkil etilgan Maxsus parlament komissiyasi barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsadlarga erishish borasida hukumat tomonidan belgilangan vazifalarning tegishli vazirlik va idoralar tomonidan bajarilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, belgilangan maqsadlarni amalga oshirish samaradorligini baholash ishlab chiqilgan ko'rsatkichlarga muvofiq amalga oshiriladi. Joriy yilning iyun oyida BRMga erishish yo'lida parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashga bag'ishlangan Buxoro forumi nafaqat parlamentlar va parlamentlararo tuzilmalar o'rtasidagi bunday hamkorlikni kengaytirish, balki BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi. 2022-yil 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiya [5] qabul qilingani davlatimiz rahbari tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 2020-yildagi 75-sessiyasida ilgari surilgan tashabbusni xalqaro hamjamiyat qo'llab-quvvatlayotganining yorqin dalilidir. Bu milliy parlamentlar salohiyatini mustahkamlash uchun qonun chiqaruvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

O'zbekiston milliy parlamenti bugungi kunda barcha yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka yo'naltirilgan tinch, ochiq va pragmatik tashqi siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Tashqi siyosiy faoliyatda faol ishtirok etishni ta'minlash maqsadida Oliy Majlis palatalari tomonidan 57 davlat parlamentlari bilan ikki tomonlama do'stlik va hamkorlik guruhlari hamda Yevropa parlamenti bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo qo'mita tuzilgan. Parlamentlararo hamkorlik mamlakatlari geografiyasi keng bo'lib, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Osiyo, Yevropa davlatlari,

AQSH, Kanada, Argentinani o'z ichiga oladi. Parlamentlararo guruhlar, komissiyalar, qo'mitalar, kengashlar faoliyati doirasida O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikdagi ikki tomonlama o'zaro hamkorligiga parlament yordamini ko'rsatish masalalarini muhokama qilish bo'yicha muntazam yig'ilishlar o'tkazilmoqda. Markaziy Osiyoni barqarorlik, barqaror rivojlanish va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylantirish davlatning eng muhim tashqi siyosiy vazifalaridan biridir. Mintaqada muloqot, konstruktiv hamkorlikni yo'lga qo'yish va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash bo'yicha ushbu ongli tanlov va qat'iy chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga kirishishning birinchi kunidayoq boshlangan edi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik muhiti mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida tomonlarning konstruktiv o'zaro hamkorligiga xizmat qiluvchi yangi geosiyosiy vaziyatni yaratishga xizmat qildi. Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida parlamentimiz mamlakatimiz tashqi siyosatining faol ishtirokchisiga aylandi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, jahon mamlakatlari o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlikni shakllantirish, muammolarni hal etish, nizolarning oldini olish, xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslarini yaratishda parlament diplomatiyasi alohida o'rin tutadi. Shu yillarda parlament diplomatiyasi geografiyasi kengayib, samaradorligi ortib bormoqda. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish imkoniyatini yaratib, mamlakatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlashga har tomonlama ko'mak beradi. Bugun parlament milliy manfaatlarini jahon maydonida ilgari surishda xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida keng imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Tinchlik va xavfsizlikni saqlash, barqaror taraqqiyotga erishish yo'lida xalqaro va parlamentlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun Oliy Majlisda mustahkam asoslar mavjud.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Международное право. Учебник для вузов. Ответственные редакторы — проф. Г. В. Игнатенко и проф. О.И. Тиунов. - М.: Издательская группа НОРМА-ИНФРА. - М., 1999. - С. 10
2. <https://lex.uz/docs/-5079490>, "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.11.2020 yil 685-son.
3. <https://lex.uz/docs/-6354839> Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalarini bajarish yuzasidan o'zbekiston respublikasining uchinchi davriy ma'ruzasini ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha bmt iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mitasining yakuniy tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallagan milliy harakatlar rejasi haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo'shma qarori, 19.12.2022 yil 2776-IV-son.
4. <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445243:~:text=va%20qonunning%20ustunligi%20,15%2Dmodda.,O%E2%80%98zbekiston%20Respublikasida%20O%E2%80%98zbekiston>, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 15-modda.
5. <https://www.un.int/uzbekistan/news/un-general-assembly-supports-initiative-president-uzbekistan>, O'zbekiston Respublikasining BMTdagi doimiy missiyasi, 2022-yil 14-dekabrda maqolasi.
6. Rashitovna, Kadirova Nargiza. "Analysis of the national legislature of the Republic of Uzbekistan on consular relations." International scientific review 1 (32) (2017): 64-67.
7. Исраилова, Зарина. "О некоторых в опросах конституционной реформы опыт Узбекистана." in Library 1.1 (2023): 40-45.